

**4-topshiriq.** Katak'larga harflarni shunday yozingki, so`zlar bo`yiga ham, eniga ham bir xil o`qilsin! O`quvchilar bo`sh kataklarga harflarni yozib, so`zlarni hosil qiladilar.

**V.Darsni yakunlash va o`quvchilarni baholash.**

**Savol-javob o`tkaziladi.**

–Maktab qanday joy?

–Siz maktabingizni yaxshi ko`rasizmi?

**VI.Uyga vazifa berish.** Hikoyani ifodali o`qing.

### **18-mavzu: "Dum-dumaloq qo`ng`iz". Hikoya (Aziz Abdurazzoq)**

**Darsning maqsadi:**

**a) ta'limiy:** o`quvchilarni hikoya matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, o`quvchilarga ifodali o`qishni o`rgatish.

**b) tarbiyaviy:** o`quvchilarga tabiatdagi jonivorlarga ozor bermaslikni, ularga g'amxo`rlik qilishni o`rgatish, o`quvchilarni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

**c) rivojlantiruvchi:** O`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

**Dars turi:** Yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi

**Dars metodi:** Suhbat, tushuntirish, "Aqliy hujum", "Klaster" usuli, "Kim hozirjavob?" ta'limiy o`yinlari.

**Dars jihozi:** Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

O`quvchilarni darsga hozirlash.

**II.Uy vazifasini so`rash va o`tilgan mavzuni mustahkamlash.** Uyga berilgan vazifa –**"Filipok " hikoyasi.** O`quvchilar hikoyani ifodali o`qib, mazmunini qayta hikoyalab beradilar.

**"Aqliy hujum" usuli.**

- 1.Filipok maktabga nima uchun borolmayotgan edi?
- 2.U maktabga yo`l olganida qanday voqea sodir bo`ldi?
- 3.Maktabda o`qituvchi unga nima dedi?
- 4.U nima uchun o`qituvchining savoliga javob bera olmadi?
- 5.Filipokning akasini ismi nima edi?

**III.Yangi mavzu bayoni.**

**"Kim hozirjavob?" o`yini.**



Bugungi mavzu e`lon qilinadi:"Dum-dumaloq qo`ng`iz" hikoyasi. Hikoya muallifi Aziz Abdurazzoq haqida ma`lumot beriladi. Yangi mavzu o`quvchilarga o`qituvchi tomonidan ifodali o`qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi.

**Lug`at ishi.**

**Nuqul** – doimiy ravishda, hadeb.

**"Dum-dumaloq qo`ng`iz " hikoyasi** o`quvchilarga zanjir usulida o`qitiladi.


**Dam olish daqiqasi o`tkaziladi.**

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Savollarga javob bering.**

- 1.Hikoyada dum-dumaloq qo`ng`izning yurishi qanday tasvirlangan?
- 2.Chumchuqining nomi nima?
- 3.Mirzasher bog`da nima qilayotgan edi?
- 4.Mehnat qilishga oid maqollarni ayting. Ularning ma`nolarini o`rtoqlaringiz bilan muhokama qiling.
- 5.Sizning ham hikoya qahramoni Mirzasher singari kitobsevar, mehribon do`stlaringiz bormi?

**"Klaster" metodi.**



**"Mustaqil topshiriq" mashqi.**


Mehnatning inson hayotidagi roli haqida kichik matn tuzing.

**Mashq daftar bilan ishlash.**

**1-topshiriq.**Hasharotlar berilgan qatorni belgilang.



**2-topshiriq.** “Bo`sh o`tirma, bosh qotir!”



Harflarni o`z o`rniga qo`yib, so`zlarni topadilar.

**3-topshiriq.** Rasmlarga qarang. Ularning nomlaridagi oxirgi harflaridan foydalanib, rebusni yeching.



|   |   |   |   |   |   |   |
|---|---|---|---|---|---|---|
| K | A | P | A | L | A | K |
|---|---|---|---|---|---|---|

**V.Darsni yakunlash va o`quvchilarni baholash.**

**Savol-javob o`tkaziladi.**

– Hikoya sizga yoqdimi?

– Zararli hasharotlar ham bormi? Ular qanday zarar keltiradi?

**VI.Uyga vazifa berish.** Hikoyani ifodali o`qing. Mehnat inson hayotida qanday o`rin tutadi? Fikrlaringizni izohlang.